TALABA-YOSHLARNI OILAVIY TURMUSHGA TAYYORLASHING MUHIM PSIXOLOGIK OMILLARI

Xudoynazarov Sherzod Axmad o‘g‘li
Guliston davlat pedagogika instituti
e-mail: sherzodxudoynazarov1994@gmail.com

Annotatsiya. Oila va jamiyat bir-biriga o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tushuncha, jamiyatning bir bo‘lagi sifatida vujudga keladi. Talabalarda oila ijtimoiy jamiyatning muhum bo‘g‘ini sifatida ko‘rilshini singdirish nikoh va oilada er xotin munosabatlari muhum bo‘g‘in xisoblanadi.

Kalit so‘zlar. Nikoh, oila, sevgi, Talaba, jinsiy tafavvut.

Annotation. The concept of family and society is interdependent and arises as a part of society. Instilling in students that the family is seen as an important link of social society, marriage and the relationship between husband and wife are considered an important link in the family.

Key words. Marriage, family, love, student, sexual difference.

Oila jamiyatning negizi sifatda tashkil topar ekan unda hayotning eng muhum bo‘g‘inlari shakillanadi, rivojlanadi. Oilada shaxs shakillanar ekan, shaxsning shakillanishida ta’lim tarbiyaning o‘rni muhum. Katta hayot yo‘liga kirayotgan yoshlarning bir-birlari bilan munosabatga kirishishdan oldin turmush o‘rtoq tanlashdagi motivlar ahamiyatli hisoblanadi . Bunda yoshlar umur yuldoshini tanlash va ota-ona majburiyatlari, bola tarbiyasi bilan bog‘liq majburiyatlarni bajarishga o‘rganadilar.

Bu borada I.V.Grebennikov shunday deydi: O‘sib kelayotgan yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash o‘z ichiga ushbu jihatlarni qamrab olmog‘i lozim:

1.Nikoh-oila va demografiya xususida davlat siyosatini ochib beruvchi, shuningdek, nikohoila munosabatlari, oilaning o‘rni, oilaviy qadriyatlar, ota-ona va kelinkuyovlarning ijtimoiy roli xususida jamiyatning fikrini ifoda etuvchi ijtimoiydemografik;

2. O‘z ichiga quyidagi axloqiy fazilatlarni: o‘zga jins vakiliga nisbatan do‘stona munosabatda bo‘lish, ota-onasiga, katta-kichikka nisbatan hurmat, bolalar tarbiyasiga ehtiyoj, mas’uliyatlilik, ishonch, halollik, o‘zini tutish, muloyimlik, yon bosish, umr yuldoshiga, bolalarga nisbatan burchni his etish, intim hissiyot madaniyati kabilarni qamrab oluvchi axloqiy-etnik;

3. Nikoh va oilaga oid qonunchilikdan boxabar bo‘lish, oila huquqining ahamiyatga molik yo‘riqnomalarini bilish, kelin-kuyovlarning bir-biriga, bolalarga va jamiyatga nisbatan majburiyatlarini bilish singari huquqiy;

4. Shaxsning rivojlanishi tushunchasini shakllantiruvchi o‘smirlarning shaxslararo munosabatlarining ruhiy jihatlari, nikoh va oilaviy hayotning ruhiy asoslari, boshqalarning ruhiyatini tushuna bilishi, turmush va oila hayotida zarur bo‘luvchi tuyg‘ularning rivojlanishi, muloqot qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish singari ruhiy;

5. Jinsiy hayot, shaxsiy gigiena masalalarini, erkak va ayolning jismoniy alohidaligi kabi bilimlarni o‘zida mujassamlashtirgan jismoniy-gigienik;

6. Bolalar tarbiyasida oilaning roli, uning pedagogik salohiyati, oilaviy tarbiyaning xususiyatlari, ota va onaning tarbiyaga yondashuvlari, ota-onalarda pedagogik madaniyatni oshirish yullari shakllanishi bilan bog‘liq pedagogik;

7. Oila jamg‘armasi, maishiy madaniyat, uy xo‘jaligini yuritish va boshqalarni o‘z ichiga olgan xo‘jalik-iqtisodiy. Oila avlodlar almashuvi jarayoni ta’sirida doimo o‘zgarib turadi. Yosh oilalar jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy yangilanishi va yuksalishini muhim sub’ektlaridan bo‘lib, ijtimoiy hayotda ro‘y berayotgan murakkab jarayonlarga o‘z ta’sirini o‘tkazishda va taraqqiyotni harakatga keltirishida muhim ro‘l o‘ynaydi.Shuning uchun hozirgi vaqtda yoshlarni ma’naviy-axloqiy va ruhiy olamini shakllantirish va rivojlantirishni chuqur va atroflicha tahlil etish ilmiy -amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qisim. Talaba-yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlash muhim ijtimoiy ehtiyoj ekanligini nazardan tutib, dastlabki oila va nikoh haqida boshlang‘ich bilim beruvchi jamiyatning bo‘g‘ini oila va maktabda bu masalada e’tiborni kuchaytirish zarur. Oilada ota-onaning o‘zaro munosabatlari, maktabda pedagoglar o‘rtasida muomala madaniyati o‘g‘il-qizlarning tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalar bilan olib borilgan so‘rov-anketa natijalariga ko‘ra yoshlarimizning ko‘pchiligi oila qonunchiligini yo yaxshi bilishmaydi, yoki mutloqo bexabar. Shaxsning oilaviy hayotga tayyorligi deyilganda, oila quruvchining: jismoniy (fiziologik), huquqiy, iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy, psixologik jihatdan etuklikligi tushuniladi. Masalan, tibbiyot xodimlarning ta’kidlashicha, shaxsning jinsiy yetukligi o‘ziga xos omillarga bog‘liq. Kilinik kuzatishlar natijasiga ko‘ra, hozirgi zamon qizlarida jinsiy etuklik (balog‘atga etish) 12-14 yoshga, o‘g‘il bolalarda 14-16 yoshga to‘g‘ri keladi. Albatta, bu etuklik ba’zi bir bolalarda ertaroq, boshqa birlarida esa kechroq ro‘y berishi mumkin. Shuning uchun ham bo‘lajak o‘qituvchilar bolalarda bo‘ladigan fiziologik o‘zgarishlarni o‘z vaqtida payqashi va bu o‘zgarishlar har bir o‘smir yoshidagi bolada bo‘lishini yotig‘i bilan tushuntirishi lozim.

Olimlarimiz shaxs etukligini quyidagi turlarga bo‘ladilar: V.A. Suxomlinskiyning chuqur ishonchiga ko‘ra, oila bolalarda axloqiy tuyg‘ularni singdirishning asosiy maktabi bo‘lishi kerak va bu axloqiy g‘oyalar va tushunchalarni shakllantirish, axloqiy tuyg‘ularni rivojlantirish, axloqiy e’tiqodlarni rivojlantirish, xulq-atvor ko‘nikmalarini va odatlarini shakllantirishni anglatadi. Nikohgacha ta’limga katta hissa qo‘shgan V.A. Suxomlinskiyning aksariyat hollarda nikohning asosiy motivi “sevgi” deb hisoblagan. Biroq, “sevgi” ni nikoh motivi sifatida ataganda, yoshlar bu so‘zga turli xil ma’nolarni qo‘yishadi. T.A. Florenskaya bu so‘zning uch xil tushunchasini belgilaydi: sevgi - jinsiy jalb qilish; sevilish zarurati sifatida sevish; dominant sifatida sevgi. Nikoh haqida gapirganda, nikoh ittifoqiga kirish istagi va unga kirishga tayyorlik darajasi bir xil tushunchalardan uzoq ekanligini unutmasligimiz kerak. Mamlaktimizning yetakchi psixolog olimlaridan biri Vasila Karimova “Oila ma’rifati” ushbu risola muallifining “Oila ma’rifati” ruknida chop etilayotgan risolalarining dastlabkisi bo‘lib, bu bevosita oilaviy hayot bo‘sag‘asida turgan yoshlar hamda endigina nikox qurib, yaxshi niyatlar bilan turmush qurgan kuyov va kelinchaklarga mo‘ljallangan. Muallif “Oila ma’rifati”ga erishish, ya’ni kelin-kuyovlar, yoshlar hamda ularning ota-onalar savodxonligini oshirish orqali, oilaviy muhitda ma’naviy qadriyatlarni barqarorlashtirishga erishishni ko‘zda tutgan. S.V.Kovolyov o‘smir va qizlarda oila va nikoh tushunchalari haqidagi tasavvurlarga ega bo‘lishlari juda muhimdir, deydi. Nikoh va sevgi tushunchalari 13-15 yoshli bolalarda qarama-qarshi tushunchalar ekanligi bilan kuzatiladi, ya’ni ular sevgi va nikoh bir-biriga teskari tushunchalar ekan deb tushunadilar. Talabalarda umur yo‘ldosh tanlashda sevgi tushunchasi faqat 4 o‘rinda, ya’ni



kabi xislatlardan keyin turadi. Yoshlar oilani jiddiy qabul qilmaydilar. Natijada juda ko‘p xatoliklarga yo‘l qo‘yib, keyinchalik oilaning muhimligini psixologik tan oladilar. Bizning asosiy vazifamiz shuki, o‘smirlarda oilaning qadrini, sevgi, nikoh oiladagi sevgining ro‘li muhimligini va u uzoq va baxtli hayot garovi ekanligini psixologik singdirishdir.

Xulosa va tavsiyalar. Oilada farzandlarni tarbiyalash, jamiyatning faol fuqarosiga aylantirish bugungi kunning asosiy omiliga aylanib bormoqda. Albatta turmush qurish yoshiga kelgan talaba bollar va qizlarning turmush o‘rtog‘ini tanlashdagi psixologik mativlarini o‘rganish darkor nikohdan oldin ota-onalar inobatga olsa maqsadli bo‘lar edi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Suxomlinskiy, V.A. Tanlangan pedagogik asarlar: 3 jildda / V. A. Suxomlinskiy. – M.: Ta’lim, 1980 – 3 jild – 640 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni XUDOYNAZAROV, S. (2024). RIVOJLANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA GENDER VA OILA. Евразийский журнал академических исследований, 4(3 Part 2), 137-141.
3. file:///C:/Users/PRO-LIDER.DESKTOP-O52LPGU/Downloads/44.pdf
4. file:///C:/Users/PRO-LIDER.DESKTOP-O52LPGU/Downloads/admin,+1.pdf